



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ABDURAHMON TOSHKANDIY IJODIDA XALQ MAROSIMLARI VA AN'ANALARI HAMDA DINIY E'TIQOD MASALALARINING KENG YORITILISHI

Suvonqulov Xusan Toirovich

Guliston davlat universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvari Abdurahmon Toshkandiy (Sayyoh) ijodida xalq marosimlari, an'analari va diniy e'tiqod masalalarining yoritilishi tahlil qilinadi. Muallif "Al-Isloh" jurnali materiallari asosida Abdurahmon Sayyohning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va diniy qarashlarini ochib beradi. Shuningdek, maqolada uning bank tizimiga munosabati, jadidchilik harakati doirasidagi faoliyati, xalqni ma'rifatga chorlovchi g'oyalari va islomiy qadriyatlarni targ'ib etishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijasida Sayyoh ijodida milliy uyg'onish, axloqiy kamolot va diniy ongini shakllantirish masalalari muhim o'rin tutgani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Abdurahmon Toshkandiy, jadidchilik, Al-Isloh jurnali, ma'rifatparvarlik, xalq an'analari, diniy e'tiqod, Turkiston, ijtimoiy-siyosiy hayot, axloqiy qarashlar, islom.

ШИРОКОЕ ОСВЕЩЕНИЕ НАРОДНЫХ ЦЕРЕМОНИЙ И ТРАДИЦИЙ, А ТАКЖЕ ВОПРОСОВ РЕЛИГИОЗНЫХ ВЕРОВАНИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУРАХМОНА ТАШКАНДИ

Сувонкулов Хусан Тоирович

Гулистанский государственный университет, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируется освещение народных обрядов, традиций и религиозных верований в творчестве джадидского просветителя Абдурахмона Ташканди (Сайёха). На основе материалов журнала «Al-Isloh» раскрываются его социально-политические, духовные и религиозные взгляды. Особое внимание уделяется его позиции по вопросам банковской системы, роли в джадидском движении, идеям просвещения народа и пропаганде исламских ценностей. В результате исследования обосновывается, что в творчестве Сайёха важное место занимают вопросы национального пробуждения, нравственного совершенствования и формирования религиозного сознания.

Ключевые слова: Абдурахмон Ташканди, джадидизм, журнал «Al-Isloh», просветительство, народные традиции, религиозные верования, Туркестан, социально-политическая жизнь, нравственные взгляды, ислам.

A BROAD COVERAGE OF FOLK CEREMONIES AND TRADITIONS, AS WELL AS ISSUES OF RELIGIOUS BELIEFS IN THE WORK OF ABDURAHMON TASHKANDI

Suvonqulov Xusan Toirovich

Gulistan State University, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article analyzes the coverage of folk ceremonies, traditions, and religious beliefs in the works of the Jadid enlightener Abdurahmon Tashkandi (Sayyoh). Based on the materials of the journal "Al-Isloh," the author examines his socio-political, spiritual, and religious views. Particular attention is given to his attitude toward the banking system, his role in the Jadid movement, his ideas on public enlightenment, and his contribution to the promotion of Islamic values. The study concludes that issues of national awakening, moral development, and the formation of religious consciousness occupy a central place in Sayyoh's works.

Keywords: Abdurahmon Tashkandi, Jadidism, Al-Isloh journal, enlightenment, folk traditions, religious beliefs, Turkestan, socio-political life, moral views, Islam.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida yuz bergan tub o'zgarishlar jadidchilik harakati bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu davrda milliy uyg'onish g'oyalari, ma'rifatparvarlik va diniy-islohotchilik yo'nalishlari jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Jadid ziyolilari orasida Abdurahmon Toshkandiy (Sayyoh) o'zining publitsistik faoliyati, xususan, "Al-Isloh" jurnali orqali xalqning ijtimoiy ongini yuksaltirish, diniy e'tiqod va milliy an'analarni uyg'un

holda talqin etish borasida muhim o‘rin tutadi. Mazkur maqolada Abdurahmon Toshkandiy ijodida xalq marosimlari, an‘analari hamda diniy qarashlarning aks etishi, ularning ijtimoiy va ma‘naviy ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Abdurahmon Toshkandiy (Sayyoh) ijodi va jadidchilik harakati doirasidagi faoliyati bir qator tarixiy, filologik va falsafiy tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, jadid matbuoti, jumladan, “Al-Isloh” jurnali materiallari asosida olib borilgan ilmiy izlanishlarda muallifning ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy va diniy qarashlari tahlil qilingan. Ayrim tadqiqotlarda uning publitsistik merosi orqali Turkiston jamiyatidagi islohotchilik g‘oyalari, milliy uyg‘onish jarayonlari hamda diniy e‘tiqod masalalarining o‘ziga xos talqini ochib berilgan. Shuningdek, milliy uyg‘onish davri manbalarini o‘rgangan olimlar tomonidan jadid adabiyoti va publitsistikasining asosiy yo‘nalishlari, jumladan, ma‘rifatparvarlik, axloqiy tarbiya va diniy islohot g‘oyalari keng tadqiq etilgan. Biroq Abdurahmon Toshkandiy ijodida aynan xalq marosimlari, an‘analari va diniy e‘tiqod masalalarining kompleks tarzda o‘rganilishi yetarli darajada tizimli yoritilmagan bo‘lib, ushbu maqola aynan shu jihatni to‘ldirishga qaratilgan.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Mazkur tadqiqotda tarixiylik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan holda ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Abdurahmon Toshkandiy (Sayyoh) ijodini o‘rganishda manbashunoslik, tarixiy-qiyosiy va tahliliy usullardan foydalanildi. Xususan, “Al-Isloh” jurnali materiallari asosiy manba sifatida tahlil qilinib, undagi ijtimoiy-siyosiy, diniy va ma‘naviy qarashlar kontekstual yondashuv asosida o‘rganildi. Shuningdek, muallifning qarashlarini davr ijtimoiy muhiti bilan bog‘liq holda ochib berish uchun komparativ (qiyosiy) va interpretativ metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida jadidchilik harakati vakillarining ilmiy merosi bilan solishtirish orqali umumiy va o‘ziga xos jihatlar aniqlab berildi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Tadqiqot jarayonida Abdurahmon Toshkandiy (Sayyoh) ijodi, ayniqsa, “Al-Isloh” jurnali materiallari asosida o‘rganilib, uning xalq marosimlari, an‘analari va diniy e‘tiqodga doir qarashlari tizimli tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, muallif o‘z asarlarida an‘anaviy diniy qarashlarni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga intilgan hamda ularni ijtimoiy islohotlar vositasiga aylantirishga harakat qilgan.

Arxiv materiallarining ma‘lumot berishicha, jadid ma‘rifatparvar Abdurahmon Sayyoh “Al-Isloh” jurnalida ijtimoiy-siyosiy mazmundagi maqolalarni nashr qilishida unga qandaydir talab yoki tazyiqlar bo‘lgan albatta. Quyidagi maqola sabab ko‘tarilgan bahslar bunga aniqlik kiritadi, deb o‘ylaymiz. Jurnalning 1916-yil 4-sonida “Bank xususidagi savollarga javob” [1; 7-v.] nomli maqola chop qilinadi. Bunda ushbu savollar aniqlanadi:

Hozirda bir qancha insonlar duch kelgan bank bilan muomala qilish va undan istifoda qilib, pul olib, pul qo‘yishning haromligi aniq isbot bilan sobit bo‘lganmi yoki yo‘q?

Bank munosabati sudxo‘rlik bo‘lib, harom bo‘lgan taqdirda, bank bilan munosabatda bo‘lishga va bu holat shariatga yo‘l va joizlik bormi yoki yo‘qmi?

Foyda tufayli bank munosabatidan paydo bo‘lgan pullarni shar‘iy ishlarga sarflasa joizmi yoki yo‘q?

Maqolada savollarga javob aks etib, bank bilan munosabat qilmaslikka musulmonlarni chorlaydi.

Abdurahmon Sayyoh ushbu maqolani 1916-yil 15-fevralda bosib chiqaradi va tilmoch Mamedov maqolani hukumat rahbarlariga tarjima qilib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxividagi ma‘lumotlar yuqoridagi maqola nashr qilingandan keyingi tarixiy voqealarni yoritib beradi [2; 52-v.]. Ya‘ni, 30-mart kuni Abdurahmon Sayyoh qatnaydigan Sebzor dahasining Eski Jo‘va mahallasidagi Beklarbegi madrasasida kechasi soat 1 dan 15 daqiqa o‘tganda Turkiston muhofaza bo‘limining buyrug‘iga asosan politsiya pristavi Ivashkevich tekshiruv o‘tkazadi. Oqibatda Abdurahmon Sodiqov nomiga berilgan pasportni topadi. Bu jarayon Abdurahmon Sayyoh nomiga ish ochilganini bildirib turibdi. Jarayonlar keyinchalik shu tahlilda davom etadi.

1916-yil 2-aprelda Sirdaryo harbiy gubernatori vaqtincha vazifasini bajaruvchisi Turkiston general-gubernatoriga ushbu “Bank xususidagi savollarga javob” [3; 2–3-v.] nomli maqolani chop qilgani uchun jurnalni yopib, uning maxfiy asoschisi va yetakchisi Munavvar qorini Turkistondan surgun qilishni so‘raydi. Bu hujjatni harbiy gubernator general-mayor Gepperi, gubernator yordamchisi polkovnik Semyonov, maslahatchi polkovnik Dolinskiy, ish yurituvchi yordamchisi Stepanovlar imzolaydilar.

1916-yil 15-apreldagi Volkovning maxfiy hisoboti [4; 15–16-v.]da Toshkentlik sartlardan Abdurahmon Sayyoh Sodiqov Munavvar Qori Abdurashidxonovning boshqaruvi ostida 2 haftada 1 bora

“Isloh” deb atalgan sarta tilidagi diniy-axloqiy jurnalni nashr etilishini ta’minlagan, deb bayon qilingan. Volkov bank haqidagi maqolani sabab qilib, jurnalning keyingi sonida bankning joizligi to’g’risida maqola chop qildirib, keyin ularni Turkistondan tashqariga badarg’a etishlarini so’raydi. Bu orqali u Munavvar qorini surgun qilib, jazolamoqchi bo’ladi. “Al-Isloh”da chop etilgan maqola unga asosli bahona bo’lgan edi. Biroq Volkov jarayonni biroq chigallashtirish uchun oxrankaning maxsus topshiriqlar bo’yicha ishchisi Mixail Narishkinni ishga soladi. U rus imperatorining 1881-yil 14-avgustda qabul qilingan “Davlat tartibi va tinchligini saqlash choralari to’g’risida” deb nomlangan ustaviga asosan Munavvar qori Abdurashidxonovni so’roq qiladi. Munavvar qori “Al-Isloh”da aytilgan fikrlarga aloqasi yo’qligini bildirar ekan, Qur’oni karimda “sudxo’rlik qilmanglar” degan oyat bor, deb ichidan maqolada bayon qilingan fikrni ma’qullaydi. Volkov ham, Narishkin ham javobdan ko’ngli to’limgach, Munavvar qoridan ushbu shaklda tilxat [5; 17-v.] yozdirib olishadi: “1916-yil 23-aprel. Turkiston tuman maxfiy bo’limida ul baland darajalik Turkiston general-gubernatorining buyrug’iga asosan menga ma’lum qilinadi: “Al-Isloh” jurnalini nashr etishda ishtirok etib, uning sahifalarida Rus imperiyasining manfaatlariga zid, ayniqsa, “Banklar xususidagi savolga javob” kabi maqolalarni kiritsam, men Turkiston o’lkasidan surgun qilinadurman. Munavvar qori Abdurashidxon o’g’li”. Volkovning tazyiqi bilan yuqoridagi maqolaga raddiya tarzida jurnalda quyidagi maqola joy oladi.

Jurnalning 1916-yil 15-maydagi 10-sonida “Bank bilan muomala qilish” [6; 304-b.] nomli maqola chop etilgan. “Isloh”ning 4-sonida bank to’g’risidagi savolga javob berilgan ekan. Unda musulmonlarning bank ishiga aralashishlari shariatga qarama-qarshi ish deb bayon qilingan ekan. Bu shaklda musulmonlarning ijaraga pul olib, pul qo’yishlari borasida yaxshi emas deganlari to’g’ri bo’lmay, bank bilan aloqada bo’lgan bir qancha musulmonlarni gumonga solsa kerak. Zero, shariat bor bo’lib turgan musulmonobod Turk davlatida ham musulmonlar banki va zaxiralari bor. Hattoki vaqf uchun alohida bank ham bo’lib, u bank bilan ha o’zi va shayxulislom boshliq nuroniy ruhoniylar muomala qilib turibdi. “Isloh”ning 4-sonidagi javobga ochiq dalil bo’lsa kerak.

Javob maqolada ha (halif so’zining to’liq yozilmaganligi A.A.) so’zi takror tekshiruv holatining davom etishiga omil bo’ldi. Tergov qilinganlar jurnal muharriri Abdurahmon Sodiqov [7; 80–83-v.], litografiya ishchilari Mirg’ani Mirxalilov [8; 76-v.], Trofim Simonov Kobilkovskiy [9; 77-v.]lar o’zlarining bildirgilarida halif so’zida l va f harflari toshbosma uslubi tufayli tushmay qolganligini bildirib o’tadilar va Abdurahmon Sodiqov jurnalning 12-sonida takror tekshirib chop etishga so’z beradi. Haqiqatan, jurnalning 1916-yil 15-iyundagi 12-sonida maqolani to’g’ri shaklda takror chop ettiradi.

Ammo maqola chop ettirilgunga qadar, 1916-yil 7-iyunda davlat xodimi Narishkin Turkiston rayon muhofazasi bo’limining buyrug’iga binoan imperatorning 1881-yil 14-avgustdagi “Davlat tartibi va tinchligini saqlash choralari to’g’risida” deb nomlangan nizomiga asosan Munavvar qori Abdurashidxonovni tergov qiladi [10; 78-v.]. Bizga ochiq bo’lmagan sabablarga binoan berilgan savollarga Munavvar qori shu shaklda javob beradi:

“Men biror marotaba musulmonlarning jurnali “Al-Isloh”da ishtirok etmaganman, men oldin ham qabul qilmaganman, hozir ham shunday. Men hech qachon jurnalni o’qimaganman. Chunki u eski davr musulmon hayotini yoqlab chiqadi. Men yangi usul maktabi muallimi sifatida “Isloh” jurnali borasida shuni ta’kidlashim mumkinki, bu jurnalning chop qilinishiga men ijizat bermaganman va bu jurnal menga maqbul emas. Jurnalda nashr qilingan “Bank haqidagi savollarga javoblar” maqolasi haqida xabarim bor, xolos, uni mutolaa qilmaganman ham. Bu maqolaning chop etilishiga men noroziman, shuningdek, Qur’onning o’zida bu borada taxminan “Foizga ko’paytirishga bermanglar” deyilgan. Qolaversa, Qur’onda bank borasida biror-bir ko’rsatma yo’q. Muhammadning o’zi aytadi: “Hattoki taqiqlangan narsalarga ham zaruratda ruxsat beriladi”. Hozirgi savdo dunyosida banksiz va unda musulmonlarning ishtirokisiz anglab bo’lmaydi. Men musulmonlarning bank jarayonlarida qatnashishi shariatga teskari emas, deb bilaman. Musulmon davlati Turkiyada ham banklar faoliyat yuritib turibdi va musulmonlar unda qatnashib turibdi. Boshqa biror narsa deya olmayman”. Munavvar qorining bu kabi javob berishi, ehtimol, jazodan qutulib qolish uchun bo’lgandir.

Ayni shu kuni, 1916-yil 7-iyunda rasmiylashtirilgan bayonnoma [11; 80-v.]da Abdurahmon Sodiqov ham tergov qilinadi. Bunda Abdurahmon Sodiqov Rus hukumatiga haqiqatan vafodor bo’lib, uni o’z vatanim deb bilishini, unga yoshlikdan naf keltirishga uringanini va bundan keyin ham naf keltirishga va’da berishini aytib o’tadi. “Sayyoh haqidagi to’liq dalillar arxivdan aniqlangan rus tilidagi tergov bayonnomasi [12; 80-v.]da keltirilgan. Bayonnomada ushbu mazmundagi ma’lumotlar aks etgan: Abdurahmon Sayyoh ibn Hoji Muhammad Sodiqov 1879-yilda Toshkentda tavallud topgan. Yaponiya, Afg’oniston, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Arabiston va Eron mamlakatlariga sayohat qilgani uchun

“Sayyoh” taxallusini olgan. 1889-yilda Sayyoh 10 yoshida ota-onasi bilan Makkaga boradi. Taxminan 6 yildan soʻng otasi oʻladi. 6 yildan keyin madrasani tamomlab, u savdo-sotiq faoliyati bilan shugʻullanadi. Dastlab qimmatbaho toshlar savdosi bilan, birozdan soʻng esa kitob sotish bilan shugʻullanadi. Soʻngra 1906-yilda savdo ishlari tufayli Xitoyning Pekin shahriga koʻchib boradi. Xitoydan Sayyoh Manjuriya orqali Rossiyaga bormoqchi boʻladi va shu sabab Pekindagi Rossiya konsuli bilan koʻrishadi. Ammo, oʻsha vaqtda Rossiya bilan Yaponiya oʻrtasida urush kechayotganligi tufayli rus pasporti bilan kiritilmasligini bilib, oʻz nomiga Buxoroga boraman deb, buxorolik pasportini rasmiylashtirib oladi. Sayyohni Mukden shahrida buxorolik pasportini taqdim etishiga qaramasdan, yapon hukumati vakillari hibsga olib, urush yakuniga qadar Port Arturga joʻnatishadi. Tinchlik shartnomasi tuzilgach, Gonkong orqali Hindistonning Bombay shahriga boradi. 1907-yilda Bombeydagi Rossiya bosh konsuli Polovsevga murojaat etadi. Sayyohni turk, arab, hind, fors, xitoy tillarini bilgani uchun konsulxonaga ishga olishadi. 1908-yilda Afgʻoniston orqali Toshkentga keladi va Turkiston harbiy okrugi shtabida faoliyat yuritadi. 6 oy ishlagandan keyin uni Hindistonga joʻnatishadi va 1911-yil Sayyoh Toshkentga qaytib keladi. 1912-yilda harbiy shtab okrugi Afgʻonistonga joʻnatadi. Toshkentga qaytgach, u bosh konsul Polovsevning akasiga fors tilini oʻrgatish uchun Monte-Karloga boradi. Monte-Karloga yetib borguncha, Sayyoh Petrograd, Berlin va Parijda toʻxtab oʻtadi. 2 oydan keyin Toshkentga qaytib keladi va tarjimonlik ishini davom ettiradi” [13; 47-b.]. 1918-yilda Qoʻqonda Abdurahmon Sayyoh qoʻrboshi Hamdam hoji (Qalandarov — A.A.) tomonidan oʻldirilgan. Uning oʻlimiga “Ittihodi taraqqiy” tashkilotining daxli yoʻq [14; 156-b.].

“Abdurahmon Sayyohning yuqoridagi tarjimai holidan maʼlum boʻlib turibdiki, u bir qator davlatlarga sayohat qilgan, bu esa oʻz navbatida uning dunyoqarashining shakllanishida muhim rol oʻynagan. U oʻz umri davomida bir nechta kitoblar yozib qoldirgan. “Sayyohning “Meʼyor ul-axloq”, “Tarixi izolat ul-gʻayn an-qissat il-Zulqarnayn”, “Tarixi islom”, “Tanvir ul-axdoq fi makorim il-axloq”, “Tuhfat ul anom tarixi bayt ul-Harom” nomli asarlari bor” [15; 41-b.]. Sayyohning ushbu asarlari haqida “Al-Isloh”ning 1915-yilgi 11–12–14-sonlarida “Yangi asarlar” ruknida toʻxtalib oʻtilgan” [16; 48-b.].

Yuqorida keltirilgan soʻroq savol-javoblaridan ayon boʻldiki, Abdurahmon Sayyoh va “Al-Isloh” jurnali hamisha Chor hukumatining tekshiruv ostida boʻlgan. Biroq Abdurahmon Sayyoh jurnalda bir qator ijtimoiy-siyosiy, tarixiy mazmundagi maqolalarni chop etgan.

Abdurahmon Sayyoh chop etgan Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotni yoritgan maqolalardan biri “Shavkati va davlati davomli buyuk hukmdor va sevimli imperatorimiz hazratlarining Turkiston oʻlkasidan gʻanimga qarshi koʻksilarini tutib turgan qahramon askarlarga koʻmak uchun ishchi soʻrashlari haqida bir-ikki xayrixohona soʻz” [17; 462–469-b.] nomli maqoladir.

Abdurahmon Sayyoh chop etgan bu maqola xalqni ozgina tinchlantirishga va 1916-yil 25-iyundagi mahalliy aholini front orti ishlariga safarbar qilish borasidagi imperator farmoniga itoat etishga qaratilgan edi. Chunki bu maqola Turkiston oʻlkasi xalqining istibdod kishanlariga qarshi eng katta chiqishi 1916-yildagi iyun qoʻzgʻolonidan keyin nashr qilingan edi. Sababi, chor hukumatining 1916-yil 25-iyunda eʼlon qilingan “Urush kechayotgan yerlarda mudofaa va harbiy aloqa inshootlarini qurish, shuningdek, davlat mudofaasi uchun kerak boʻlgan barcha boshqa ishlarni qilish uchun rus boʻlmagan aholining erkak qismini jalb qilish toʻgʻrisida” [18; 223-b.]gi farmoni boʻldi.

Yuqoridagi farmonga koʻra, asosan hozirgi Oʻzbekiston hududlarida yashovchi va yoshi 19 dan 31 gacha boʻlgan 200 mingdan ziyod erkak mana shu ishlarga safarbar qilingan. Kamiga qishloq xoʻjalik ishlari eng “qaynab” turgan vaqtda bunday farmonning eʼlon qilinishi xalqni gʻalayonga keltirgan edi. Oʻlkada bir zumda front orti ishlariga chaqiriluvchilarning roʻyxatlari tuzila boshlandi, aholiga front ortidagi ishlarga safarbar qilinganlar 3 oylik muddatda qaytib kelishlari, bu vaqtga qadar ularning roʻzgʻorlari barcha zarur narsalar bilan taʼminlanishi vaʼda qilindi. Mahalliy hukumat vakillari yuqoridagi safarbarlikni boylilik orttirish vositasiga aylantirib yuborishdi. Boylarning farzandi maʼlum pul evaziga qutulib qolar, kambagʻallar esa yakkayu-yagona boquvchisidan ham ayrilar edi. Bunday adolatsiz vaziyat kuchli norozilikni keltirib chiqardi. Mardikorlikka chaqiriq toʻgʻrisidagi farmonning qabul qilinishi aholi orasida qonli voqealarning paydo boʻlishiga sabab boʻldi. 1916-yil 4-iyulda dastlab Xoʻjand xalqi qoʻzgʻolon koʻtardi. 1916-yil 10-iyulga kelib esa Eski Margʻilon, Qoʻqon, Namangan, Andijon, Chust va boshqa hududlarda katta noroziliklar boʻlib oʻtdi. 11-iyuldan 15-iyulga qadar Fargʻona viloyatining turli hududlarida chaqiruvga qarshi oshkora talablar bilan chiqishlar boʻlib oʻtdi. 1916-yilning avgustida “Turkiston general-gubernatori Turkiston rayon muhofazasi boʻlimi” maʼlumotlari asosida podshoning mardikorlikka olish borasidagi farmonini ijro etish uchun jadidlarning koʻmagiga tayanish haqidagi xulosaga qoʻshildi. Shu sababli u jadidlar rahnamosi Ubaydullaxoʻjaning talabini qondirib, Andijon tumanboshisi lavozimidan olindi. Mardikorlikka olishda hamma ishlarni jadidlar rahbarlik qiluvchi “tuzem

qo‘mitasi” ixtiyoriga topshirdi. Toshkentdagi “Tuzem qo‘mitasi” rahbarligiga Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevni, uning o‘rinbosarligiga esa Munavvar qori Abdurashidxonovni tayinladi.

Abdurahmon Sayyoh tomonidan “Al-Isloh” jurnalida 1916-yil 1-avgustda nashr etilgan ushbu maqolada jurnal tahririyati xalqni imperator farmoniga itoat etishga chorlaganini ko‘rishimiz mumkin. Insonlarning tabiati hamisha bir-birlari bilan birlashib yashashni taqozo qilgani sabab qishloqlar vujudga keldi. Xaloyiqlar guruh-guruh bo‘lib, bir-birlariga yordam berib, muddaolariga yetmoqdalar. Ularning tabiati va mazhablari adolatli, zulmkor va har xil bo‘lgani uchun Alloh taolo o‘rtalarida o‘rtamiyonalikni ushlab turish maqsadida payg‘ambarlar va hukmdorlarni yuboradi. Ularning turli qarshiliklardan asraydi. “Ey, imon keltirganlar, Allohga va uning rasuli (s.a.v.)ga bo‘ysuninglar. O‘zingizdan bo‘lgan boshliqlarga bo‘ysuning”. Imperatorimiz tomonidan ushbu 2 yillik shiddatli urush maydonidagi qora xizmatlar bilan belgilangan Vatan do‘stlarini dushmanga qarshi qahramon askarlarning saflariga chiqarish uchun o‘rinlariga boshqa ishchilar olish borasidagi istaklari rahbarlar tomonidan shahar hokimlari vositasi bilan Shayx Xovandi Tohur jome’ sahnida amaldor qozilar, mingboshilar, ellikboshilar, mudarrislar, eshonlar va boshqalar jamlandilar. Musulmon va ruslardan barchasi 7000 ishchi olinishi aytilib, hammaga yetkazinglar, bu borada hukumat idorasi hamisha sizlar uchun ochiq, deb aytili. Yig‘ilganlar bu ishni maslahatga qoldirdilar. Bu ish nuroniylar tomonidan tinglaguvchilarning qiyofalari o‘zgarmasdan ularga zahmat keltirmas darajada tadbir qilishlari iltimos qilindi. Chunki Vatanni muhofaza etish hamma fuqaroga lozimdir. Bundan bo‘yin tovlashimizning oqibati kechagi voqeadir. Kechagi voqea bo‘yin tovlashdan emas, balki rahbarlar bilan muomala odobini bilmaslik oqibati bo‘lsa ham, natijasi yaxshi bo‘lmadi. Itoat etishimiz bilan biz bir qator buyruqlarni bajaramiz. Dastavval, Allohning “Rahbarlaringizga itoat eting” degan buyrug‘ini bajaramiz. Ikkinchidan, “O‘zingizni o‘z qo‘lingiz bilan halokatga uloqtirmang” oyatiga xilof etmagan bo‘lamiz. Uchinchidan, podshohimizning farmonlarini qadrlashimizni o‘zgalarga bildiramiz. So‘ngra, 50 yil davlati soyasida yashaganimiz podshohga sadoqatimizni bildiramiz

Endi, podshohga sodiq ekanligingizni namoyon eting, tarix zarvaraqlarida qolish uchun bu buyruqqa itoat etishga g‘ayrat qiling. Farzandlaringiz, molingiz va barcha millatdoshlaringizni turmush tarzini barqaror eting. Shu vaqtga qadar, ulamolarimiz tomonidan bu buyruqqa itoat etishga chorlab biror-bir maqola kelarkanmi, deb umid bog‘layotgandik. Oxiri, o‘z iqtidorimizga yarasha bir-ikki og‘iz so‘z demoqqa jazm qildik.

1916-yilgi qo‘zg‘olon ma‘rifatparvarlarning g‘oyaviy qarashlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. U milliy-ozodlik harakatining avj olishi, milliy mustaqillik qarashlarining keng quloq yoyishiga sabab bo‘ldi. Jadidlar bu vaqtda mustamlaka hukumatining beboshligini oshkor etishda o‘ziga xos siyosiy yo‘l tutdilar. Ular “mardikor olish borasida yerli mahalliy qo‘mitalar vositasida qo‘zg‘olonchilarning erkinlikka intilishlarini qo‘llab-quvvatlashdi, kuch va imkoniyatlaridan kelib chiqib, urush ortidagi mardikorlar taqdirini yengillashtirish, hukumatning ta‘minot borasidagi beboshlik va zo‘ravonliklarini bekor qilish uchun barcha choralarni ko‘rdilar” [19; 242–243-b.].

Birinchi jahon urushi sabab Abdurahmon Sayyoh chop etgan maqolalardan biri “Suvayish zayomiga yozilinglar” [20; 242–243-b.] deb nomlanadi: “Petrograd. O‘lkaning ko‘plab shaharlaridan zayomga yozilishlari birmuncha samarali tarzda davom etganligi haqida telegrammalar olindi. Nega bo‘lmasin. Zayomning o‘lka aholisiga xos ekanligi, yurt ichida yoyilishi fuqarolar uchun insonparvar podshohning marhamatidir. Vaholanki, ushbu zayomlar chetga tarqatilganda edi, biroz foydaning vatandan tashqariga chiqib ketishi muqarrar edi. Bu borada yurtdoshlarimiz o‘z ehtiyojlaridan holi bo‘lgan pullariga zayom qog‘ozini olishlari, vatan mudofaasida qatnashish, ehson qilish bo‘lib, qadrli insonlarini vatan mudofaasi uchun jon berayotgan bahodirlarga bu ham bir ko‘mak. Ushbu zayomda qatnashishimiz o‘z sodiqligimiz, ixlos va muhabbatimizni namoyon etishdir.

Farg‘ona vodiysidan Qo‘qon ayonlari-yu qozilari birlashib, barcha hunarmand va savdogarlardan 1000 so‘mdan olib, 50 so‘mgacha banklardan zayom qog‘ozi olishni boshlab yuboribdilar. Qozilarning bu ishdagi faoliyatlari e‘tirof etmoqqa molikdir. Zero, kattalar, rahbarlarning ko‘rsatgan shijoati o‘zgalarning shijoatiga sabab bo‘ladi. Birodarimizning zayom olish borasida “Isloh”da o‘tgan bank xususida maqolalarini isbot etib, tortinmasliklari umid qilinadi. Muhtaram qozi, eshon va ulamolarimizning, bankka oid maqola yozgan birodarimizning ham o‘zgalarni qiziqtirish uchun ushbu zayomda qatnashishlari ehson qilgan bilan teng bo‘lsa kerak”. Bu masalaga Abdurahmon Sayyoh shariat nuqtai nazaridan dalil-hujjat sifatida “Zarurat muhokamasi” [21; 243-b.] nomli maqola chop etgan:

XIX asr so‘nggi va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayot borasida fikr yuritilganda Turkiston ma‘rifatparvarligiga to‘xtalib o‘tish zarur. Shu sabab, ma‘rifatparvarlikda islohotchilik g‘oyalarining qanday tasvirlanganligi ilmiy ishimizni yanada boyitadi, deb o‘ylaymiz.

Ma'rifatparvarlik O'rta Osiyo va G'arbdagi ilg'or yangilanishlar oqimi ta'sirida, XIX asr so'nggi va XX asr boshlarida paydo bo'ldi va ijtimoiy taraqqiyotda o'ziga xos jarayonni belgilab berdi. Milliy ziyolilar, yetakchi taraqqiyparvar kuchlar mustamlaka Turkiston, Rossiya to'liq qaram bo'lmagan Buxoro va Xiva xonliklaridagi tushkun ahvol, bu hududlarning butunjahon taraqqiyotidan tobora orqada qolayotgani, mahalliy aholining ozodlik uchun intilishlarining bostirilishi omillarini, faqat iqtisodiy sohada emas, shuningdek diniy, ma'naviy sohada ham vujudga kelgan qoloqlikni to'liq anglab yetdilar va bu ular tafakkurida jamiyatda isloh etish fikrlarini paydo qildiki, busiz taraqqiyotni anglab ham bo'lmas edi.

O'rta Osiyodagi bu islohotchilik harakati murakkab, davriy jihatdan serqirra yo'lni bosib o'tdi. Ma'rifatparvarlik turli o'lkalardagi yuksalish, islohotlar uchun qilingan harakatlarning falsafiy tajribasiga suyanib, bu tajribani milliy ruhda amalga oshirishga mo'ljallandi, ayni damda ijtimoiy yuksalish yo'llari borasidagi turli fikrlarning uchrashgan maydoni ham bo'ldi. Istibdod zulmiga qarshi kurashning asosiy g'oyasi ana shu qiyin yo'lda shakllanib yetildi. Ma'rifatparvarlar o'zlari xohlagan davlat tuzumini qanday deb bilardilar? Ularning bu borada dasturi bormidi? – degan savol paydo bo'ladi. Fevral inqilobi Turkiston xalqi tomonidan o'ziga xos hayajon bilan kutib olindi. Inqilob tomonidan e'lon qilingan Ozodlik, Tenglik, Birodarlik shiorlari mustamlaka zulmidan aziyat chekkan musulmonlar qalbida nurli kelajakka umid uyg'otdi.

“Turkiston ma'rifatparvarlarining asosiy maqsadlari – xalqni, jamiyatni mustaqillik va yuksalish tomon yetaklash bo'lgani holda, unga erishishning bir qator yo'llarini tanlaganliklari uchun ham ularni turli yo'nalishlarga bo'lish mumkin” [22; 91-b.]. Masalan, ulardan biri Rossiya qo'l ostidagi muxtor o'lka sifatida qolish (Muxtoriyat) fikrini ilgari sursa, yana boshqasi mutlaqo mustaqil davlat tuzish tarafdori bo'ldi. Qolaversa, ma'rifatparvarlar bu “Muxtoriyat” so'zini turlicha tushunganlar va talqin etganlar. Ba'zilar uni “federatsiya” deb bilishgan, ba'zilar esa “avtonomiya” deb tushunishgan. Biroq “Kengash”, “Hurriyat” va “Najot” singari o'sha vaqtning vaqtli matbuotlarida nashr qilingan maqolalardan anglash mumkinki, “Muxtoriyat” so'zi shunchalik keng ma'noni o'z ichiga qamrab olganki, unda ham federatsiya, ham avtonomiya, ham milliy-demokratik davlatni shakllantirish masalalari joy olgan.

“Abdurahmon Toshkandiy yosh avlodning aziz vaqtini behuda o'tkazib, ko'cha changitib, ot choptirib yurishidan, boylarning farzandlari maktab va madrasalarni pora berib tamomlashidan, oqibatda o'z oilasiga fojia keltirishidan iztirobga tushadi. Abdurahmon Sayyoh birgina diniy bilimlar bilan chegaralanib qolmay, dunyoviy bilimlarni ham o'rganish zarurligini uqtiradi. Jaholatda qolgan “qora xalqning oqarishi”da birdan-bir vosita ma'rifat ekanini alohida ta'kidlaydi” [23; 52-b.]. “Uning “Al-Isloh” jurnali 1915-yil 17-sonida chop etilgan “Islohi tadrish haqida” sarlavhali maqolasi bu jihatdan diqqatga sazovordir. Dars isloh o'lmasa, o'lmas biza fayzu futuh deya o'sha vaqtda Turkistonda ta'lim tizimi zamon talablariga javob bermay qolganidan iztirob chekadi. Abdurahmon Toshkandiy kuyinish bilangina cheklanmaydi. Bu holatdan chiqish choralarini izlaydi” [24; 514–516-b.]. “Uning “Al-Isloh”ning 1915-yil 13-sonida “Himmat ur-rajo” nomli maqolasi e'lon qilingan. U maqolada maktab va madrasalarning qurilish reja loyihasidan tortib, dars xonalarining ichki jihoz-uskunalarigacha, dars necha yil bo'lishi kerak, bir kunda necha fan o'qitilishi zarur, talabalarning darslarni o'zlashtirishi va imtihon olish usuli qanday bo'lmog'i lozimligi haqida batafsil to'xtaladi”.

“Abdurahmon Sayyohning ijodini o'rganish davomida 1917-yil 1-apreldan boshlab, hurriyat haqida ko'plab maqolalarni nashr etganiga guvoh bo'lamiz. Shu mazmundagi maqolalardan biri “Yashasin hurriyat” nomli maqola bo'lib, unda hurriyatni ikki qismga ajratib izohlanadi. Birinchisi, malakiy hurriyat, ikkinchisi, diniy hurriyat. Bu yerdagi malakiy hurriyat davlat, millat hurligi ma'nosida bo'lsa, diniy hurriyat esa, dinni mahkam tutib, uni bid'at va xurofotlardan holi qilib, uning zamon saodatiga xizmat qilishini dalillashdan iborat deb izohlaganlar. Shu nashrdagi Ibrohim Tohiriyning “Hurriyat” nomdagi maqolasida “Millatlar haq hurriyatni ilmlar va maorif nuri barakasida toparga musharraf bo'lurlar”, deb hurriyatni talqin etadi. Shu sabab muallif maqolasida Samarqand, Xo'jand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi madrasalardagi ta'lim jarayoniga alohida urg'u berishni ta'kidlaydi. Shu bilan birga inson huquqi va davlat huquqi qonunlarini hamma tushunishini ta'kidlab o'tadi. Abdurahmon Sayyoh esa jurnalning bir qator (1916-yil, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 16) sonlarida “Diniy hurriyat” nomli maqolalarni nashr qilgan” [25; 273-b.].

“Hurriyati diniya” [26; 490-b.] sarlavhali maqolada, shuningdek, amaldagi mavjud qonunga o'zgartirish kiritilganligi borasida shunday deyilgan: “Muvaqqat hukumat hurriyati diniya haqida bugunga qadar bor bo'lgan qonunlarni o'zgartirib, yangi qonun chiqardi. Yangi qonunning ahamiyatli jihatlari quyidagilardan iborat:

Rossiyaning har bir fuqarosi din borasida hurdir.

9 yoshga yetmagan bolalar ota-onasining dinidadur, ota-onalari 2 e'tiqodda bo'lsa, otasining dinida deb hisoblanur.

Ota-onasi ma'lum bo'lmagan bolalar esa vasiylarining dinida deb hisoblanur.

17 yoshdagi har bir insonga bir dindan boshqasiga o'tishi uchun biror ruxsat joiz emas.

9 yoshga yetmagan bola ota-onasi o'tgan dinga o'tgan hisoblanur".

Abdurahmon Sayyoh "Al-Isloh"da "Havaskaron maorif" [27; 870–871-b.] jamiyati Andijonda hurriyat tufayli tashkil qilinib, rivojlanish zamoni kelganligi borasida quvonch bilan xabar beradi. Unda kambag'allarning farzandlari ta'lim olishlari va shu bilan bir qatorda adabiyotlar va oziq-ovqat bilan ta'minlanishlarini qayd etib, zodagonlardan himmatlarini ayamasliklari, moddiy va ma'naviy yordam berishlarini so'raydi. Abdurahmon Sayyoh ushbu jamiyatga har qanday yo'l bilan bo'lsa ham ko'mak berish hamma yurtdoshlarimizga darkordur, deya ta'kidlaydi.

Abdurahmon Sayyoh chop qilgan "Sho'roi islomiya barakasi" [28; 869–870-b.] nomli maqolada "Sho'roi islomiya" partiyasi tuzilganligi borasida ma'lumot berilib, uning dastlabki vazifasi – islomiy qozi va qozixonalarni isloh etish, Toshkentning 4 dahasida "Qozi islomiy" nomli yangi qozixona barpo etish, deb ko'rsatib o'tadi.

Abdurahmon Sayyoh yana "Isloh" kutubxonasini ochmoq istagi borligini "Bashorat" [29; 224-b.] nomli maqolada ham uchratishimiz mumkin: "Hamdlar bo'lsinkim, Toshkand musulmonlarida ham maorif taraqqiy etmakdadur. Bundan bir necha paytlar ilgari "Maktab" kutubxonasi, "Turtki" kutubxonasi, "Irmod" kutubxonasi ochilmish edi. Endilikda "Al-Isloh" idorasining tomonidan "Isloh" kutubxonasi ochmoqg'a ham Haq taolo muvaffaqiyat berdi. Shahrimizda bu barobarida kutubxonalarning kun sayin ko'paymagi musulmonlarda ilm va maorifning yuksalishining omili bo'lsa kerak. "Isloh" kutubxonasi yangi asarlarda maxsus bo'libgina emas, balki yangi asarlar hamohangida darsiy va g'ayri darsiy, salafi solihin asarlardan ham furush qiladurg'on kutubxonadur. "Isloh" kutubxonasida maorifning har turiga aloqador naqsh, xarita, daftar va shu kabi narsalar ham mavjud va qolaversa, eski maktab, yangi maktab va rus-tuzem maktablarda mutolaa qilinadurg'on rusli va g'ayri rusli kitoblar topilur. "Isloh" nomli yangi ochiladurg'on kutubxonasida birodarning tavajjuh etmaklari umid qilinadi".

"Abdurahmon Sayyoh maqolalarida insonlarning kelajak orzu-istaklari borasidagi qarashlari axloqiy g'oyalari bilan hamohang holda ma'naviy-falsafiy jihatdan tahlil qilinib, inson o'z ruhiyatini to'g'ri tarbiyalashi orqali jamiyat muammolarini hal qilishi va hayot haqiqatini tushunib yetishi mumkin degan xulosalari ijtimoiy bilish nazariyasi sifatida qabul qilingan. Uning ta'limotidagi insoniylik, insonparvarlik masalalarida islom dini bilan chambarchaslikning umuminsoniy axloqiy xarakteri alohida ahamiyatga ega deb hisoblangan. Shu qatorida, insonni himoya qilishda yoki uning huquq va erkinliklarini kafolatlashda inson irodasi, ongi, axloqiy yuksakligi axloqni amaliyotda ko'rsatib beruvchi fazilatlar deb baholanishiga e'tibor qaratilgan va ularning amaliy hayotda o'z o'rniga ega ekanligi asoslangan" [30; 273-b.].

XX asr boshlari Turkiston tarixida ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyotning nisbatan yuksalgan davri bo'lgan. Bu davrda yashab ijod qilgan jadid ma'rifatparvarlar o'z maqolalarida mavjud tuzumdagi ijtimoiy hodisalar ichida axloqni bosh masala darajasiga ko'tarishgan. Ular ijtimoiy hayotdagi tartiblar, hukmdorlarning xalqni boshqarish siyosatiga munosabatlarida, avvalo mehnatkash xalq ommasi manfaatlarini himoya qilganlar. Hukmdorlarni adolatsizlik, jabr-zulm, istibdod va haqsizlikka chek qo'yishga da'vat qilib, mamlakatda osoyishtalik, adolat, haqiqatni qaror toptirish, axloq tamoyillari asosida ish yuritishga undaydilar. Nohaqlik, tengsizlik, zo'rvonlik, talonchilikka qarshi o'z noroziliklarini bayon qiladilar. Jadid nashrlari erkni, yurtni muqaddas bilguvchi, peshqadam, anglagan, har jihatdan barkamol ozod Turkiston fuqarosini tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib oldi. Ming afsus, ilk fevral to'ntarishi bergan ozodlik ko'pga bormadi. Bolsheviklarning 1917-yilning 25-oktyabrida qilgan inqilobi bir zum o'tmay buning yutuqlarini yo'qqa chiqardi, Lenin boshchiligida ishlab chiqilgan yangi mustamlakachilik rejasi asosida barcha taraqqiyparvar kuchlar qirg'in qilindi. Falsafa sohalari, ayniqsa, axloqshunoslik rivojlanishdan to'xtadi, bular mafkuraga yo'naltirilib, yolg'on aralashtirildi, hur fikr ildizi bilan yo'q qilindi. Shu bois jadidchilik o'z oldiga yuklagan vazifalarni to'liq bajara olmadi. Ammo, bunga qaramasdan, Turkistondagi bunday ma'rifatparvarlik harakati oz fursat yashagan bo'lsa ham, mustamlaka millatni qaysidir mazmunda uyg'ota oldi. Abdurahmon Sayyoh yangi usul maktablari eski o'qitish tizimidan afzal ekanligini sodda va tushunarli qilib izohlagan.

Turkiston aholisini axloqiy yetuklik va ma'rifat orqali milliy o'zligini tushunish pog'onasigacha olib chiqishda Abdurahmon Toshkandiy axloqiy qarashlarining ahamiyati katta.

Shunisi qiziqarliki, Abdurahmon Sayyohning axloqiy fikrlari qaysidir ma'noda yevropalik taniqli zamondoshi, buyuk nemis adibi, faylasuf Fridrix Nitsshening ayrim fikrlari bilan hamohang. Lekin, aytib

o'tish joizki, Nitsshedagi kuchli ziddiyat, kuchli qarorsizlik Toshkandiyga begona. Bundan tashqari, hayotbaxsh nigilizm (axloqiy normalarni inkor etish), qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish, kerak bo'lsa, butun xalqni qayta tarbiyalash singari qarashlar Toshkandiyga ham xos. Abdurahmon Toshkandiy o'z millatini nihoyatda sevgan inson. Abdurahmon Sayyoh insonlarning o'z qobiqlariga o'ranib, e'tiborsiz bo'lib ketayotganidan, zamindagi o'z odamiy burchi va vazifasini qilmayotganidan darg'azab bo'ladi: "Suqrotga og'u bergan, Ionna Arkni olovga tashlagan, Isoni dorga osib, Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamni tuyaning o'limtigiga ko'mgan kim? Xalq! Shunday bo'lgach, xalqda aql yo'q. Yo'lini top-da, xalqqa rahnamolik qil" [31; 109-b.].

Ma'lumki, ma'rifatparvarning axloqiy shaxsi — millatga yo'lboshchilik qila oladigan inson. Vaholanki, bu a'lo inson emas, biroq a'lo inson mas'uliyatini qaysidir ma'noda uddalay oladigan odam. Shunday odamni tarbiyalab katta qilish, kerak bo'lsa, paydo qilish (axloqiy tomondan) mumkin: "Inson validasidan aqlli bo'lib tug'ilmaydi, — deydi Toshkandiy, — aksincha, tug'ilganidan so'ng, olamda nima yaxshi-yu nima yomonligini eshitib, topib, ko'rib, zehn qo'yib, ushlab aqlli bo'ladi". Yana bir joyda esa, ma'rifatparvar shunday deydi: "Mabodo hukumat mening qo'limda bo'lganida, odam bolasini tuzatib bo'lmaydi, degan insonning tilini kesib tashlardim...". Bunday qarashlar hatto Abay axloqiy fikrlarining insonga ishonch va hayotbaxsh nigilizmga qaratilganini anglatib turadi.

Ma'rifatparvarning haqligini shaxsni axloqiy tomondan ancha pastlashtirib, insonni e'tiqodsizlik, yolg'onchilik dardiga ro'baro' qilgan mustamlakachilik, ayniqsa, sho'rolar davrining salbiy munosabatida aniq tushunishimiz mumkin.

Toshkandiyning adolat, hayo, oqillik, uyat, insof kabi fazilatlar va maqtanchoqlik, oliftagarchilik, kerilish, yolg'onchilik, ochko'zlik singari illatlar borasidagi qarashlari ham e'tiborga molik. Chunonchi, u uyat tushunchasining ikki xil mazmuni borligini ta'kidlaydi. Birinchisi, inson o'zi uyat bo'larlik xatti-harakat qilmaydi, biroq o'zganing uyatli xatti-harakatidan uyaladi. Buning mazmunini ma'rifatparvar uyatli xatti-harakat qilgan insonga nisbatan paydo bo'lgan achinish tuyg'usida ekanini bildirib o'tadi. "Ikkinchisi shuki, — deydi Toshkandiy, — qilgan xatti-harakating ham obro'-e'tiborga, ham shariatga, ham aqlga zid bo'ladi: inson bunday xatti-harakatni bilmasdan, yoki tushunmasdan, yoki nafsini tiyolmasdan qilib qo'yadi. Mana shuni chin ma'nodagi uyat desa bo'ladi". Mana shu ikkinchi ma'nodagi uyatni ma'rifatparvar vijdonga ulaydi, buni vijdon azobining tashqi shakli mazmunida tushuntiradi: "Ba'zan uyatli kishilar uyqudan, ishtahadan qoladi, hatto chiday olmay o'zini o'zi o'ldiradiganlari ham bo'ladi. Uyat kishining or-nomusi, o'z yaramas fazilatlariga (ya'ni illatlarga — A.A.) qarshi ichki isyonidir".

Garchi ulug' Turkiston ma'rifatparvari bir qator illatlar borasida o'z millatiga nisbat berib fikr yuritsa-da, ular ayrim hollarda istisno tariqasida — faqat o'zbeklarning kundalik hayotiga taalluqli tomonlarini aytmaganda, umumturkiy ahamiyatga ega axloqiy kamchiliklardir. "O'quv va yozuvlarning insonlarga zarur ekanligi har kimga ma'lumdir, na uchunkim, o'quv va yozuv bilgan odam ila bilmagan odam miyonasida har vajhdan osmon ila yercha farq bordur..." — deb nihoyatda asosli so'zlarni keltirib yozadi u.

Abdurahmon Sayyoh asosan islomiy mavzulardagi manbalarni nashr etishni xohlagan. Shu sabab uning qarashlarida diniy-ma'rifiy sohalar yetakchi o'rinni egallaydi, desak adashmagan bo'lamiz. Abdurahmon Sayyohning islom diniga oid nashr etgan maqolalari shartli ravishda 3 guruhga tasniflandi:

1. Islom tarixiga doir maqolalar;
2. Islom aqidaviy ta'limotini o'zida aks ettirgan maqolalar;
3. Islom shariatini bayon qiluvchi maqolalar. Bunday maqolalar ko'pincha savol-javob tarzida berilgan.

Islom tarixiga oid mavzular quyidagi maqolalarda aks ettirilgan: "Islom tarfiga chaqiruvchining ibtidosi", "Tarixi islom" (Arablarining johiliyat zamonlari), "Islomning o'tgandagi va hozirgi holi", "Tarixi Xadicha", "Muhammad alayhissalomning tug'ilishlari" kabi maqolalarni aytib o'tishimiz mumkin. Islom tarixi va ta'limotini yoritishga qaratilgan barcha maqolalar tahlil etildi. Bu esa Abdurahmon Sayyohning yanada qiziqish bilan faoliyat yuritishiga sabab bo'lgan.

Nashr qilingan maqolalar qismlarga ajratilgan holda davomli shaklda yozilgan. "Tarixi islom" nomli maqola shular jumlasidandir. Bunda Muhammad (s.a.v.)ning dunyoga kelishlari, ota-onalarining vafot qilishi, amakilarining tarbiyasiga o'tishlari, Amin deb nomlanishlari, Xadicha (r.a.)ga uylanishlari, Zaynab, Ruqiya, Ummu Gulsum, Fotima, Abdulloh farzandlari haqida to'xtalib, shunday deyiladi: "O'g'illari payg'ambarlik zamonidan oldin Makkada vafot etdilar. Biroq qizlari sharifi islomga musharraf bo'ldilar. Zaynab, Ruqiya, Ummu Gulsum payg'ambar (s.a.v.)dan oldin, so'ngra Fotima Madinai

Munavvarada vafot etdilar...”.

“Arablarning johiliyat zamonlari haqida”gi maqolada esa, ularning dinlari borasida shunday deyiladi: “Ba’zi arablarning xarakterlari yahudiy mazhabga, ba’zilari nasroniyatga va ba’zilari salbiy mazhabga moyil edi. Ular osmon jismlarining sayr-harakatlariga, munajjimlarning kalomiga e’tiqod qilishar va ba’zilari farishtalarga ibodat qilur edilar. Shunchalik turli mazhab va e’tiqodda bo’lib, bir-birlari bilan janjal qilmoqda, aroq ichmoqda, qimor o’ynamoqda, zino qilmoqda, avlod o’ldirmoqda, sudxo’rlik qilmoqda, ko’p xotin olmoqda — barchalari bir qatorda edilar. Payg’ambar (s.a.v.) sanamlardan voz kechmoqqa va yolg’iz Allohga ibodat qilmoqqa rahbarlik qilmoqqa bel bog’ladilar. Ular g’azablanib, ma’nosiz e’tirozlar qildilar va oldingilarning ishlarini asos keltirdilar.

Payg’ambar (s.a.v.) vahiy bayoni til bilan ularning idrok va irodalariga mos ochiq asoslar so’zlab, haqni sobit qildilar va ommani hayratda qoldirib, yaratguvchining borligiga, uning yakka va yagonaligiga hamda qiyomatning borligiga aniq dalillar bilan so’zladilar...”.

Abdurahmon Sayyoh jurnal nashri davomida islom dinining asosi Qur’oni karimni tilovati bilan kifoyalaniq qolmaslik uchun “Qur’oni karim nadur?” deb nomlangan maqolada quyidagilarni bayon qiladi: “Taassuflar bo’lsinki, biz Turkiston o’lkasining ko’pchiligimiz o’z bolalarimizni to yoshlik va qo’lidan biror ish kelmaydurgan vaqtda maktab va korxonalariga jo’natib, 4–5 yil davom ettirib, xat va savodni anglab yoki Kalomullohni yod etgandan so’ng umumshariat o’rgatmasdan va Qur’oni karimning ma’nosi va maqosidlariga idroki darajasi yetkudek holatga yetkazmasdan, balki ularni dunyoviy ishlarga berurmiz va shu boisdan bolalarimiz Qur’oni karimning avomir va navohirlarini fahmlamasdan ojiz bo’lib qolurlar. Zero, faqat tilovatda qodir bo’lmoq bilan uning amru-nahiyalariga tushunmoqlik hosil bo’lmaydur...”.

Abdurahmon Sayyoh ulamolarning jamiyatdagi o’rniga e’tibor qaratib, “Ulamolarning vazifalari” deb nomlangan maqola nashrida quyidagi 3 narsani ta’kidlaydi:

1. Alloh taoloning amriga bo’ysunishga targ’ib qilish.
2. Payg’ambar (s.a.v.)ning buyruqlariga itoat etishga targ’ib qilish.
3. Podshohlarning farmonlariga itoat etishga targ’ib etish.

Chunki adolatli podshohlar yer yuzida Allohning noibidurlar. Haq taolo Qur’oni karimda ularga itoat etishni bizlarga vojib qilgan.

Kasb va mol yig’ishning farzligi maqolada shunday izohlanadi: “Chunki kasb va mol yig’ishning farzligi odamning unga muhtojligidir. Farzligi qat’iy aqlan va naqlan ham bardavom bo’lgan. Biroq zarurat yuzasidan, hojatini qondirish uchun farzdir. Hojatdan tashqarisi shar’iy yo’l bilan bo’lsa, kasb ila halol mol dunyo topish muboh. Bunga fatvolar va boshqa kitoblarda yozma va izohli oyat va hadislar guvohlik qiladi. Shuni anglash darkorki, kasbkorlik va dunyo yig’ishning halolligi manba va sunnat bilan aniq bo’lgan bo’la olmas. Bir umr qilgan kasbining savobi bir marta aytgan zikrining savobiga yetolmas. Insoniyat, umuman, tirik mavjudot taom va suvsiz yashay olmaydi. Ularni topish kasbsiz mushkul ishdir. Mabodo kasbsiz hosil bo’lsa ham (shar’iy bo’lsa, albatta), faqat 2 yo’l bilan bo’lishi mumkin:

1. Gadoylik.
2. Allohning fazli karami bilan.

Birinchi shar’an mazmumdur. Chunki muqaddas kitoblarda ko’rdimki, kasbli insonlarning barchasi 12 xil bo’ladi. Ulardan bir toifasi dangasalar deyiladi. Ular shar’iy kasb qilishga imkoni bo’la turib qishloq va shaharlarda uyma-uy yurib mol toparlar. Bularning topgani shariat bo’yicha haromdir. Xulosa: kasb hojat vaqtida farz. Maqolaning keyingi bobida Alloh zikrining fazli borasida so’z boradi”.

Xulosa. Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, albatta, Abdurahmon Toshkandiyning barcha axloqiy fikrlarini butunlay to’g’ri deb qabul qilish kerak emas. Chunonchi, u so’fiylik tariqatlarining barchasini mohiyatan reaksion, degan qarashni ma’qullaydi va so’fiylarni mustamlakachi ma’murlar ra’yiga itoat qiladigan rasmiy din peshvolari bilan chalkashtirib yuboradi. Lekin, nima bo’lganda ham, Abdurahmon Toshkandiyning asarlari hozirgi davrda ham ijtimoiy-axloqiy mohiyatini yo’qotmagan. Qolaversa, Abdurahmon Toshkandiy jadid va ma’rifatparvar sifatida ham, shaxs sifatida ham insonni o’ylantiradigan, matonatli, pokiza shaxs, o’rnak bo’larli axloq egasi bo’lgan. Abdurahmon Toshkandiy hayotini Turkiston xalqlari ma’naviyatini taraqqiy ettirishga bag’ishladi, ta’qib va tazyiqqa uchrasa-da, odillik qo’shinining mard o’g’loni sifatida kurashdi. Hozirgi vaqtda mustaqil O’zbekistonimizga bu qaysidir mazmundagi qahramon jadid ma’rifatparvari orzu qilgan kunlar keldi, Abdurahmon Toshkandiyning olimona bashorati amalga oshdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zR MDA, I-461-fond, 1-ro’yxat, 1784-ish, 7-varaq.
2. O’zR MDA, I-461-fond, 1-ro’yxat, 1784-ish, 52-varaq.

3. O'zR MDA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1784-ish, 2–3-varaqlar.
4. O'zR MDA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1784-ish, 15–16-varaqlar.
5. O'zR MDA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1784-ish, 17-varaq.
6. Idora. Bank bilan muomala qilish // Al-Isloh. – Toshkent, 1916. – № 10. – B. 304.
7. O'zR MDA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1784-ish, 80–83-varaqlar.
8. O'zR MDA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1784-ish, 76-varaq.
9. O'zR MDA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1784-ish, 77-varaq.
10. O'zR MDA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1784-ish, 78-varaq.
11. O'zR MDA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1784-ish, 80-varaq.
12. O'zR MDA, I-461-fond, 1-ro'yxat, 1784-ish, 80-varaq.
13. Asatulloev A. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy-axloqiy konsepsiyasi: PhD dis. – Toshkent, 2023. – B. 47.
14. Munavvar Qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. – B. 156.
15. Ahmedov S. Yo'qolgan odam // Guliston. – Toshkent, 1999. – № 4. – B. 41.
16. Asatulloev A. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy-axloqiy konsepsiyasi: PhD dis. – Toshkent, 2023. – B. 48.
17. Idora. Shavkati va davlati davomli ulug' podshoh va suyakli imperatorimiz hazratlarining Turkiston viloyatidan dushmanga qarshi ko'kraklarini tutib turgan qahramon askarlarga yordam uchun ishchi so'rashlari haqida bir-ikki xayrixohona so'z // Al-Isloh. – Toshkent, 1916. – № 15. – B. 462–469.
18. O'zbekiston xalqlari tarixi. – 2-jild. – T.: Fan, 1994. – B. 223.
19. Садыков Х. Д. Колониальная политика царизма в Туркестане и борьба за национальную независимость в начале XX века: автореф. дис. докт. ист. наук. – Т., 1994. – С. 242–243.
20. Idora. Suvayish zayomiga yozilinglar // Al-Isloh. – Toshkent, 1916. – № 8. – B. 242–243.
21. Idora. Zarurat muhokamasi // Al-Isloh. – Toshkent, 1916. – № 8. – B. 243.
22. Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash. – T.: Ma'naviyat, 2001. – B. 91.
23. Asatulloev A. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy-axloqiy konsepsiyasi: PhD dis. – Toshkent, 2023. – B. 52.
24. // Al-Isloh. – 1915. – № 17. – B. 514–516.
25. Asatulloev A. A. Abdurahmon Toshkandiy ijodining Turkiston ma'naviy-axloqiy hayotidagi o'zgarishlarga ta'siri // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – 273 b.
26. Idora. Hurriyati diniya // Al-Isloh. – Toshkent, 1917. – № 16. – B. 490.
27. Idora. Havaskor maorif jamiyati // Al-Isloh. – Toshkent, 1917. – № 8. – B. 870–871.
28. Idora. Sho'roi islomiya barakasi // Al-Isloh. – Toshkent, 1917. – № 8. – B. 869–870.
29. Qori Mirzo Ahmad. Bashorat // Al-Isloh. – Toshkent, 1915. – № 7. – B. 224.
30. Asatulloev A. A. Abdurahmon Toshkandiy ijodining Turkiston ma'naviy-axloqiy hayotidagi o'zgarishlarga ta'siri // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – 273 b.
31. غلام حسن آرفجانوف متبعی. تاشکند، ۱۹۱۲ – عبدالرحمان سیاح تاشکندی / Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy. – Toshkent: G'ulom Hasan Orufjonov matbaasi, 1912. – B. 109.